



Talabalarning kognitiv avtonomiyasini rivojlantirish: nazariy va metodologik yondashuvlar

Mamadiyeva Zilola Shavkat qizi –

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: zilolamamadiyeva@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-3256-2859>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Kognitiv avtonomiya talabani mustaqil fikrlashi, muammoni yechish, qaror qabul qilish va shaxsiy intellektual pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim kompetensiya sifatida baholangan. Maqolada kognitiv avtonomiya mazmuni, uning psixologik-pedagogik komponentlari, ta'lim jarayonida rivojlanish mexanizmlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rni ilmiy asoslangan. Tadqiqot natijalari talabalarda mustaqil ta'lim motivatsiyasi va reflektiv tafakkurni shakllantirish ta'lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy omillaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kognitiv avtonomiya, mustaqil fikrlash, refleksiya, kompetensiya, talaba faolligi, o'qitish metodologiyasi.

Когнитивная автономия студентов: теоретико- методологические основы

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы развития когнитивной автономии у студентов. Когнитивная автономия рассматривается как важная компетенция, способствующая самостоятельному мышлению студента, решению проблем, принятию решений и формированию личной интеллектуальной позиции. В статье научно обосновано содержание когнитивной автономии, её психолого-

педагогические компоненты, механизмы развития в образовательном процессе, а также роль современных педагогических технологий. Результаты исследования показывают, что формирование у студентов мотивации к самостоятельному обучению и рефлексивного мышления является одним из ключевых факторов повышения качества образования и подготовки конкурентоспособных специалистов.

Ключевые слова: *когнитивная автономия, самостоятельное мышление, рефлексия, компетенция, активность студентов, методология обучения.*

Theoretical and methodological foundations of developing cognitive autonomy in students

Annotation. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing cognitive autonomy in students. Cognitive autonomy is evaluated as an important competence that supports students' independent thinking, problem-solving, decision-making, and the formation of a personal intellectual stance. The article provides a scientific rationale for the essence of cognitive autonomy, its psychological and pedagogical components, the mechanisms of its development in the educational process, and the role of modern pedagogical technologies. The research results show that fostering students' motivation for independent learning and reflective thinking is one of the key factors in improving educational quality and preparing competitive specialists.*

Keywords: *cognitive autonomy, independent thinking, reflection, competence, student activity, teaching methodology.*

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya, axborot oqimining keskin ortishi, innovatsion texnologiyalar va mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi sharoitida faoliyat yuritmoqda. Bunday vaziyatda talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki yangi vaziyatlarda mustaqil yechim topish, murakkab muammolarni mustaqil hal qilish, tanqidiy tahlil va refleksiya asoslangan qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar talab qilinadi. Mazkur jarayonlarning markazida kognitiv avtonomiya – talabaning intellektual mustaqilligi va o'z-o'zini boshqaruvchi aqliy tizimi turadi.

Kognitiv avtonomiya shunchaki mustaqil o'qish qobiliyati emas; u talabaning tafakkur jarayonini ongli boshqarishi, o'z fikrini asoslay olishi, turli manbalardan olingan bilimlarni tanqidiy qayta ishlashi, o'quv faoliyatini rejalashtira olishi, baholashi va nazorat qilishi kabi murakkab psixologik-didaktik mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Shu bois, kognitiv avtonomiyasi rivojlangan talaba – har qanday yangi bilimni mustaqil egallay oladigan, axborot ishonchliligini baholay oladigan, mustaqil fikr bildiradigan va ijodiy yondashuvga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, 2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida barcha oliy ta'lim tashkilotlarida axborot-resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o'quv-uslubiy va boshqa qo'llanmalar raqamli formatga o'tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirilishini ta'minlanishi hamda ular bo'yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimini joriy qilinishining belgilanishi, raqamli ta'lim muhitini yaratish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni

joriy etish, mustaqil ta'lim ulushini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari talabalar kognitiv avtonomiyasini shakllantirish uchun mustahkam metodik asos yaratmoqda. Raqamli platformalar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va ochiq ta'lim resurslarining jadal o'sishi talabalarda o'quv jarayonini o'z boshqaruvi ostiga olish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda aksariyat talabalar mustaqil izlanish, refleksiya qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, o'z o'quv jarayonini rejalashtirish kabi ko'nikmalarda qiyinchilikka duch kelayotgani ko'zga tashlanmoqda. Bu esa kognitiv avtonomiyani rivojlantirish bo'yicha tizimli pedagogik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. O'qitishning an'anaviy usullari ko'pincha talabaning subyektdan ko'ra ob'ekt sifatida qatnashishiga olib keladi, bu esa mustaqil fikrlashni cheklaydi.

Kognitiv avtonomiya rivojini ta'minlash uchun ta'lim jarayonida konstruktivistik yondashuv, muammoli ta'lim, konstruktiv muloqot, reflektiv amaliyot, talaba markazli o'qitish va metakognitiv strategiyalarni qo'llash zarur. Chunki bu yondashuvlar talabaning o'quv faoliyatini faollashtiradi, o'z fikrini shakllantirish va himoya qilishga undaydi, bilimni mustaqil kashf etishga yo'naltiradi.

Shunday qilib ushbu ilmiy maqolada kognitiv avtonomiya rivoji – talabaning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligi uchun xizmat qilishi, zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kognitiv avtonomiyaning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, metodologik asoslari va uni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy asosda yoritishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy manbalarda kognitiv avtonomiya turli jihatlardan chuqur o'rganilgan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar asosan psixologik, pedagogik va neyrokognitiv yondashuvlarga tayanadi. Piaje va Vigotskiy kognitiv rivojlanish hamda mustaqil intellektual faoliyatning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, ularning ta'limotiga ko'ra, shaxsning tafakkur jarayoni faol o'zlashtirish, muhit bilan o'zaro ta'sir qilish, muammo yechish jarayonida izlanish olib borish va ijtimoiy tajribani ongli ravishda o'zlashtirishga bog'liq. Bu jarayonda shaxsning mustaqil fikrlashi, refleksiya yuritishi va tahliliy qobiliyatini rivojlantirish hal qiluvchi o'rin tutadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, Ryan va Deci, J. Flavell, Zimmermanlarning ilmiy ishlari kognitiv avtonomiyaning mazmunini aniq belgilab beradi. Ularning qarashlariga ko'ra, kognitiv avtonomiya uch asosiy komponent bilan tavsiflanadi:

- Metakognitiv faoliyat shaxsning o'z fikrlash jarayonini boshqarishi, tahlil qilishi va samaradorligini baholashi.
- Motivatsion mustaqillik tashqi rag'batdan ichki rag'batga o'tish, o'z o'quv faoliyatini shaxsiy maqsadlar asosida tashkil etish.
- Intellektual mas'uliyat qaror qabul qilish, tanlovning oqibatlarini tushunish va o'z faoliyati uchun javobgarlikni his etish.

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlarida ham talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, axborot izlash, tahlil qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish strategik vazifa sifatida belgilangan. Bu esa talabalarda kognitiv avtonomiyani shakllantirishni milliy ta'lim tizimi oldidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama o'rganish uchun metodologik kompleks yondashuvlardan qo'llanildi. Metodologiya normativ-huquqiy manbalar, kognitiv

psixologik jarayonlar, metakognitiv nazariyalar, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari hamda tajriba-sinov ishlariga tayangan holda ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini yuksaltirishga qaratilgan qarorlari – PQ-5847 va PQ-4884-son qarorlariga asoslanib, ular talabalarda mustaqil fikrlash, analitik ishlab chiqarish, ijodkorlik va intellektual faollikni rivojlantirish zarurligini belgilab beradi. Bundan tashqari, Flavellning metakognitsiya konsultatsiyasi, Brownning o'z-o'zini boshqarish modeli, Schraw va Dennisonning metakognitiv tuzatishlar tuzilmasida foydalanildi. Ushbu ilmiy manbalar tahlili talabalarda avtonomiyaning mazmuni, tadqiqot tuzilmasi ochib berishga xizmat qildi.

Talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishga mo'ljallangan pedagogik ta'sirlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Talabalarining kognitiv avtonomiyasi quyidagi yo'nalishlarda maxsus diagnostika vositalari orqali baholanadi: metakognitiv xabardorlik (o'z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish); muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati; refleksiya darajasi; mustaqil o'quv faoliyatiga tayyorlik; motivatsiya va o'zini baholash ko'rsatkichlari.

Talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishning mazmuni, mexanizmlari va pedagogik sharoitlarini o'zida mujassamlashtirgan ilmiy-pedagogik model ishlab chiqish rejalashtirildi. Model quyidagi tarkibiy birliklardan iborat bo'ladi: o'qituvchi–talaba hamkorlik mexanizmi; mustaqil ta'lim faoliyatining tashkil etilishi; metakognitiv strategiyalardan sayohat; muammoli asosida o'qitish; refleksiv faoliyatni rivojlantirish; ta'lim jarayonida resurslardan yuklash. Model talabalarda mustaqillik, aqliy jarayonni boshqarish va o'z bilim yaratish ongli tashkil etish ko'plab intellektual bilimlarni yaratishga qaratiladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalarining ko'pchiligida mustaqil ma'lumot izlash, manba bilan ishlash va kerakli axborotni tanlab olish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Topilgan ma'lumotlarni tanqidiy baholash, ularning ishonchlilikini tekshirish, bir nechta manbalarni solishtirish kabi intellektual amaliyotlar sust rivojlangan. Shuningdek, talabalarda refleksiya yuritish, o'z-o'zini baholash va o'quv faoliyatidagi xatolarni anglash bo'yicha malaka pastligi kuzatildi. O'quv jarayonini rejalashtirish, maqsad qo'yish va vaqtni boshqarish kabi tashkiliy mustaqillik elementlari ham yetarlicha rivojlanmagan aniqlangan.

Mazkur holat kognitiv avtonomiyani rivojlantirishni tizimli yo'nalishda tashkil etishni talab qiladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi pedagogik yondashuvlar eng samarali hisoblanadi: interfaol metodlar "keys-stadi", muammoli ta'lim, bahs-munozara, aqliy hujum kabi faol o'quv texnologiyalari talabalarni fikrlash jarayoniga faol jalb qiladi. Raqamli platformalar, elektron kutubxonalar va onlayn ta'lim resurslaridan mustaqil foydalanishni o'rgatish esa axborot izlash madaniyatini shakllantiradi. O'quv jarayoniga ilmiy izlanish elementlarini mini-tadqiqotlar, kuzatish, tahlil va xulosa chiqarish jarayonlarini integratsiya qilish talabalarining ilmiy fikrlashini kuchaytiradi. Shuningdek, refleksiya kundaliklari va portfoliolar yuritish o'z-o'zini tahlil qilish, natijalarni baholash va shaxsiy o'sishni monitoring qilish imkonini yaratadi.

Ushbu yondashuvlarning qo'llanishi talabalar kognitiv avtonomiyasini oshirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va ularni zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kognitiv avtonomiya talabaning mustaqil fikr

yuritishi, o'quv faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, axborotni tanqidiy tahlil qilishi va ijodiy yakuniy yechimlarni ishlab chiqishi kabi jarayonlarning markazida turadi. Mazkur kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat individual intellektual o'sishni ta'minlaydi, balki ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, o'qituvchining o'zni ham kognitiv avtonomiyani shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi zarur. Talabalarni o'z o'quv jarayonini rejalashtirish, baholash va tahlil qilishga jalb etish ularning intellektual mustaqilligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning, zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilishning hamda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning eng muhim shartidir. Bu jarayonni tizimli rejalashtirilgan pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar va innovatsion ta'lim muhitini yaratish orqali amalga oshirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanishi lozim.
2. Mustaqil ta'limning modul tizimi, tadqiqotga asoslangan ta'lim va loyihaviy yondashuv keng joriy etilishi zarur.
3. Talabalarga axborotni mustaqil izlash, tanqidiy tahlil qilish va yechim ishlab chiqishga yo'naltirilgan topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.
4. O'qituvchilar kognitiv avtonomiyani rivojlantirish bo'yicha maxsus metodik ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.
5. Ta'lim muassasalarida refleksiya, muammoli fikrlash va tanqidiy tahlilni rivojlantirishga qaratilgan treninglar muntazam o'tkazilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
3. N.N.Azizxodjaeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005 y.
4. J.H.Flavell, Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906-911.
5. G.Schraw, R.S.Dennison, Assessing Metacognitive Awareness. Contemporary Educational Psychology
6. А.А.Карпов Основные тенденции развития современного метакогнитивизма: методические указания. – Ярославль: ЯрГУ